

## QADIMGI FARG'ONA VA XITOIY MUNOSABATLARI

**Ibragimova Dilshoda Ismoilovna**

Namangan Davlat Universiteti

Tarix yo`nalishi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada qadimgi Farg'ona Markaziy Osiyo mintaqasida tutgan o'rni, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda tashqi iqtisodiy aloqalari, shuningdek Markaziy Osiyoda asosiy yetakchi ro'l o'ynaganligini qisqacha bayoni keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangshov madaniyati, Si Machyanning "Tarixiy xotiralari", A, Anarboyev, S. Qudratov, B. Abulg'oziyeva, "24 tarix" asari, "Ipak yo'li", "Polona", Van Motsay oqsoqollar kengashi, "uzoq g'arb oti".

XX asrning oxirigi o'n yilligida dunyoda shu qadar ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldiki, u xalqaro hamjamiyatning siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy asoslarni keskin o'zgartirib yubordi. Yer yuzi xalqlarning yashash tarsi, uslubi ijtimoiy mo'ljallarida yangilanish sodir bo'ldi. Shuningdek, yangi davlatlar jahon siyosati maydoniga kirib keldi va ular xalqaro munosabatlarda ishtirok eta boshladi. Markaziy Osiyo xamisha qudratli qadimgi Farg'onaga qiziqib kelgan. O'tmishga nazar solsak. qadimgi Farg'ona-Xitoy munosabatlari qachon boshlanganligi haqida ma'lumotga ega emasmiz. Bu munosabatlar juda qadimdan boshlangan bo'lishi kerak. Sababi tadqiqotchilar milodan avvalgi IV-III ming yilliklarda cho'l va dasht atrofida vujudga kelgan madaniyat O'rta Osiyo, Qozog'iston, Mo'g'iliston va Shimoliy Xitoyda umumiy birlikka ega ekanligini aytiladi.

Shuningdek, Turkmaniston va O'zbekistonning janubida topilgan rangli sopol buyumlarning "Yangshov madaniyati" davrida Xitoyda paydo bo'lganligi ko'rsatiladi. Demak, V-VI ming yil muqaddam umumiy madaniyatga ega bo'lgan xalqlarning o'zaro munosabatlarida Farg'onaliklarning ishtirok etishi muqarrardir. Davan davlati uzoq yillardan buyon tadqiqot ishlari olib borilib, so'ngi yillarda o'zbek olimlaridan A. Asqarov, A. Xo'jayev, B. Matboboyev, A. Anarboyev, S. Qudratov, B. Abulg'oziyeva, B. Abdullayev, Abdulxoliq Abdurasul o'g'li kabilar arxeologik ma'lumotlarni va yozma manbalar bilan qiyosiy o'rganish asosida samarali ishlar olib borayotgan bo'lishlariga qaramay, bu yo'nalishda hali ko'pgina masalalar o'z yechimini topmagan.[1]



Davan davlat shaharlarining aniq joylashuvi, davlat tizimi va boshqaruvi davlatning chegaralari qo'shni davlatlar bilan munosabatlar, mahaliy madaniyatning qo'shni madaniyatlar bilan munosabatlari shular jumlasidandir. Xitoy manbalarida O'rta Osiyoliklar jumladan, farg'onaliklarning miloddan avvalgi II asrda juda mohir savdogar, molning narxi ustida bir-biriga gap bermasdan tortishadiganligi aytilgan. Shuning uchun farg'onaliklar qadimdan savdogarchilik bilan shug'ullanganligi sababli Xitoyga borib savdo-sotiq ishlarini olib borganlar.

Bu Farg'ona-Xitoy munosabatlarining qadimda boshlanganligiga asosdir. Xitoyliklar esa Farg'ona haqida milloddan avvalgi II asrda Xitoy elchisi Jang Chyan mil.avv 114 sayohatidan so'ng to'la malumotga ega bo'ladi. Xitoy manbalarida Farg'ona davlati dastlabki ma'lumot "24 tarix" asarining birinchi jildi Si Machyanning "Tarixiy xotiralar"idan olingan. Farg'onaliklar o'troq xalq bo'lgan. Mazkur ma'lumotlarda Farg'ona vohasida dehqonchilik bilan birga chorvachilik ham rivojlanganligi va uning shaharlari 2500 yillik tarixni qamrab oladi. Demak farg'ona vodiysida dehqonchilik va chorvachilik rivojlanganligini, savdo aloqalari uzoq o'tmishdanoq ravnaq topganligini, ko'hna zamonlardayoq mazkur makonning "Ipak yo'li" jon tomiri bo'lganligini ko'rsatadi.[2]

Millodan avvalgi 138 yilda Xitoy imperatori tomonidan Udi Chjan Syanni O'rta Osiyo yerlariga elchi sifatida jo'natadi. Millodan avvalgi II-I asrlarga kelib, U Di Chan Syan yurgan yo'llarda Xitoyni O'rta va G'arbiy Osiyo bilan bog'laydigan karvon yo'li paydo bo'ladi. Bu yul "Buyuk Ipak"dir. Xususan, millodan avvalgi II asrdan boshlab Xitoy va O'rta Osiyo tarixiy madaniy viloyatlari bilan savdo va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Farg'ona, So'g'd va Baqtriyaga ipakchilik kirib keldi. Karvon yo'li rivojlanib borgani sari savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlanib bordi.

Milodning boshlarida qadimgi dunyoning ilg'or madaniyatli davlatlari asosan to'rta: Rim, Parfiya, Xitoy va Kushon davlatlari edi. Sharq va G'arb xalqlari o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalarni o'rnatgan va rivojlangan. Milodan yuz yil avval Chin yurtidan yo'lga o'tlangan ilk savdo karvoni dovonu dalalar, bepayon sahrolar osha Farg'ona vodiysiga ipak va bronza ko'zgular keltirilgan. Shu tariqa dunyo silvizatsiyasi rivojida muhim o'rin tutgan.[3]

Xitoy davlati va Farg'ona o'rtasida elchilik aloqalarining yo'lga qo'yilishi bilan rivojlangan savdo munosabatlari har ikkala tomon taraqqiyotiga deyarli ta'sir ko'rsatadi. Turkistonning markazida joylashgan Farg'ona davlati mazkur munosabatda alohida ko'zga tashlanganligidan Xitoy xoqonining diqqat e'tiborini kundan kunga ko'proq torta boshlaydi. Xususan, Farg'onada asl zotli "tulpor" otlarning borligi to'g'risidagi xabar Xitoy xoqonining o'z rejasini amalga oshirishda



sazavor bo'ladi. Xitoy xoqoni Farg'ona asl otlari usun "tulpor"lariga qaraganda ham go'zal va chiroyli ekanligini eshitgach bu otlarga ega bo'lish mamlakatning shonu shuhratini oshirishini his qilib, Farg'ona asl otlarini qo'lga keltirish ishtiyoqi hammdan ustun kela boshlaydi.

Xoqonning istagini anglagan elchilarning ba'zi birlari Farg'ona "tulpor" otlaridan nusxalaridan sotib olishga muyassar bo'lganlar ham bo'lgan. Mazkur xabar Xitoy xoqonini juda ham xursand qiladi. Xitoy xoqoni Farg'ona otlariga havas bilan boqib otlarni "tulporlar" deb atashdan voz kechib, uni "uzoq quyosh botish oti" "uzoq g'arb oti" deb o'zgartirib, Farg'ona otlariga "tulpor ot" degan nomni beradi. U erishilgan muvaffaqiyatlarni yana davom ettirib, elchilik munosabatlari asosida rivojlangan savdo aloqalarni kundan-kunga kengaytirishga harakat qiladi.

O'zining butun tarixi davomida Davan davlati yirik imparatorlar va kuchli davlatlar ta'siri ostiga tushmasdan o'z siyosiy erkinligini saqlab qolgan. Arxeologik topilmalar qadimgi Davanning o'ziga xos rivojlanish yo'liga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Misol uchun Farg'ona vodiysi millodan avvalgi VI-IV asrlarda Eron Ahmoniylar va Aleksandr Makedoniskiy bosqinlardan chetga qolgan. Aleksandr faqat Xo'jant shahrigacha kelganligi taxmin qilinadi. Salavkiylarning ham Farg'ona vodiysiga kirib borganlari haqida ma'lumotlar yo'q. Milodan avvalgi II-I asrlardagi Xitoy manbalarida keng, obod mamlakat-Davan haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Davan Shahar va voha hokimlarining erkin ittifoqidan iborat davlat edi. Ulug' hukumdor qarorgohi Gushan [Xoz.O'gan sh. deb taxmin qilinadi.]da bo'lgan. Podisho hokimiyati qabila zodigonlaridan iborat oqsoqollar kengashi tomonidan cheklab qo'yilgan. Oliy kengash hukumdorni podisholikdan tushirishi, xatto o'limjazosiga hukum qilishi mumkin bo'lgan. Davan atamasi o'rniga "Boxan" va "Polona" mil avv V asr atamali uchrab muarrixlar ushbu atamalar qadimgi Davanga moyi keladi deb qayd etib o'tganlar.[4]

Milodning I-II asrlariga kelib qadimgi Farg'ona aholisining o'tiroq dehqonchilik madaniyat yuqori darajaga ko'tariladi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg'ona vodiysida bu davrga oid ko'p sonli aholi manzilgohlarini vodiyni turli hududlarida keng yoyilish sug'orma dehqonchilik rivojlanganligidan dalolat beradi. Davan aholisi 300 ming kishini tashkil qilgan, Davanliklar ko'zlari kirtaygan, qalin soqolli xalq bo'lib, xotin-qizlarni izzat ikrom qilingan. Davan hukumdori yoki podsho mamlakatning siyosiy va diniy hayotda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu jarayonda oqsoqollar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etganlar, bazan ular hukumdorning taqdirini ham hal etganlar. Misol uchun manbalarda qayd etilishicha, urushda mag'lubiyatga



uchraganligi uchun hukumdor Van Motsay oqsoqollar kengashidagi umumiy ovoz berishda ayibdor deb topilgan va qatl qilingan.

**Xulosa:** Demak Farg'ona Xitoy bilangina emas balki Rim, Parfiya va Kushon davlatlari bilan doimo iqtisodiy savdo-sotiq munosabatini olib borgan. O'zaro savdo-sotiq orqali madaniyat, ilm-marifat rivojlangan, ijtimoiy sohalar rivojlanishi aholini siyosiy ongini rivojlantirgan. Xitoy manbalari qadimgi Farg'onani tarixini yoritib berganligi o'sha davrda, demak, Xitoy va Farg'ona o'rtasida doimo silvizatsiya bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Markaziy Osiyoda qadimgi Farg'ona silvizatsiya o'chog'i bo'lganligini ilmiy tarixiy adabiyotlarda yoritib borilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar royhati:**

1. Sh.M.Mirziyoyevning Birlashgan millatlar tashkiloti. Toshkent-2021.
2. O'zbekiston Milliy Ensklopediyasi Ijild. Toshkent 2005.814-bet.
3. A.Abdurasul o'g'li. Qadimgi Farg'ona Tarixidan (Xitoy manbalarida Farg'ona haqida ilk ma'lumotlar. Toshkent -2022.
4. A.Xo'jaev. Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar. Farg'ona-2013.65-b

